



# FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

ISSN: 2181-1776

Adilova Munisa Furkatovna <sup>1</sup>

<sup>1</sup> Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti  
o'qituvchisi. Toshkent, Uzbekistan

## INNOVATION YONDASHUV ASOSIDA BO'LAJAK PEDAGOGLARNING KOMMUNIKATIV KOMPETENTLIGINI SHAKLLANTIRISH

**Annotatsiya:** Maqolada bo'lajak pedagoglarning kasbiy tayyorlash jarayonida kommunikativ kompetentligini innovation yondashuv asosida shakllantirish hamda psixologik-pedagogik integratsiyaga asoslangan uning didaktik imkoniyatlari ochib berilgan.

**Kalit so'zlar:** ta'lim, tarbiya, pedagog, kommunikativ, kompetentlik, muloqot, munosabat, madaniyat, yondashuv, ta'lim oluvchi, o'zaro ta'sir, hamkorlik, guruh.

Keyingi yillarda oliy pedagogik ta'lim tizimida jiddiy o'zgarishlar ro'y berdi, bu esa oliy pedagogik ta'lim muassasalari tuzilmasi, ta'lim mazmuni, o'qitish texnologiyalariga ta'sir ko'rsatdi. Umuman olganda, oliy kasbiy ta'lim tizimidagi o'zgarishlar nafaqat o'qituvchining an'anaviy pozitsiyasida, balki kengroq "inson – jamiyat – inson" tizimida ko'plab sohalarda o'zini o'zi kasbiy anglashga tayyor o'qituvchini shakllantirishga qodir bo'lgan sifat jihatidan yangi pedagogik ta'limni shakllantirishga qaratilgan.

Bugungi kunda oddiy bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirishning o'zi inson ta'lim olish muammosini hal etmasligi ayon. Kasbiy pedagogik ta'limning asosiy maqsadi - malakali, kompetentli, muntazam kasbiy o'sishga tayyor o'qituvchini tayyorlashdan iborat.

Kasbiy kompetentlik – bu shaxsning ham kasbiy tayyorgarligi, ham ma'lumotlilik tavsifidir. Kasbiy kompetentlikning muhim tarkibiy qismlaridan biri bu kommunikativ kompetentlikdir. Shuning uchun bo'lajak pedagog erkin muloqot qila olishi va nutqining ravon bo'lishi hamda ta'lim oluvchilarga o'zaro ta'sir ko'rsata olishi lozim. Chunki, aynan pedagog ta'lim oluvchilarga ilmiy haqiqatlarni tushunishga qiziqishlari va amaliy harakat

usullarini o'zlashtirishlariga yo'l ochib beradi hamda jamoada ijobiy muloqot muhitini yaratadi.

So'nggi yillarda amalga oshirilgan pedagogik-psixologik ixtisoslikdagi tadqiqot ishlarida "kompetentsiya" va "kompetentlik" tushunchalari ilmiy-nazariy va ilmiy-uslubiy jihatdan tahlil qilinadi. Shuningdek, ularda kompetensiyaga asoslangan yondashuvning mohiyati ochib beriladi. Masalan, rus psixolog olimlari - V.I.Baidenko, E.F.Zeer, I.A.Zimney, O.E.Lebedev asarlariga bag'ishlangan. M.Mitina, JI.A.Petrovskaya, J.Raven, G.K.Selevko, A.V.Xutorskiy va V.D.Shirshovlar kommunikativ kompetentsiya muammolarini tadqiq qilishgan.

Shuningdek, rus psixologi O.I.Danilenko o'qituvchining kommunikativ madaniyatini odamlar o'rtasidagi muloqot jarayonining borishini ta'minlovchi o'ziga xos insoniy xulq-atvori sifatida belgilaydi. Rus pedagog olim V.D.Shiryuv esa pedagogik muloqotning umumiy muammolarini ko'rib chiqadi.

Rus psixologi I.I.Rydanova o'qituvchining nutq xatti-harakati madaniyatini kasbiy mahoratning muhim tarkibiy qismi sifatida tavsiflaydi. U bu kommunikativ vazifalarni intuitiv darajada emas, balki psixologik va pedagogik qonuniyatlarni bilish asosida ongli darajada hal qilishligida, deya ta'kidlaydi.

Shuningdek, rus psixologlari - A.A.Pean va Ya.L.Kolominskiylar "kommunikativ kompetentsiya" tushunchasini, shuningdek, kommunikativ faoliyat texnologiyasini tahlil qiladilar.

Kommunikativ kompetentsiya, nutq madaniyati, muloqot madaniyatini shakllantirishning turli jihatlarini esa S.V.Belova, L.S.Znikina, L.L.Luzyanina, V.V.Oxotnikova, L.M.Shapovalova va L.A.Povarnitsinalar tadqiq qilishgan.

Bundan ko'rinib turibdiki, kommunikativ kompetentsiyani shakllantirishga bag'ishlagan tadqiqotlar keng ilmiy jamoatchilik doirasida katta qiziqish uyg'otayotganini tasdiqlaydi. Chunki, kommunikativ kompetentsiya bo'lajak pedagoglarning kasbiy kompetentligining muhim xususiyati hisoblanadi.

Ma'lumki, bugungi kunda yaxshi mutaxassis bo'lishning o'zi etarli emas, balki umumiy natija olish uchun:

- jamoada ishlash qobiliyati va qaror qabul qilishda ishtirok etishi;
- o'z bayonotining boshqalarga tushunarli etkazishi;
- o'z g'alar nuqtai nazarini tushunishi;
- bundan tashqari, turli xil axborot texnologiyalaridan foydalangan holda ma'lumotlar bilan ishlashi;
- nizolarni samarali hal qilishi;
- mazmunli tanqidiy natijalarga bag'ishlangan ma'ruzalarni omma oldida taqdim eta olishi;
- hamkasblari, ta'lim oluvchilar va ularning ota-onalari bilan ijobiy munosabatlar o'rnatishga qodir yaxshi xodim bo'lish lozim.

Ta'limning asosini insonning erishishi uchun zarur bo'lgan amaliy ko'nikma va qobiliyatlarni rivojlantirish deb belgilaydigan bo'lsak, shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy

hayotidagi muvaffaqiyatidan keyingi muhim belgilaridan biri – bu uning kommunikativ kompetentsiyasidir.

Bo'lajak pedagoglarning kommunikativ kompetentligini shakllantirish muammosini hal qilish sohasidagi nazariy va amaliy erishilgan yutuqlarga qaramay, shuni aytishimiz kerakki, kommunikativ kompetentsiyani shakllantirish uchun pedagogik shart-sharoitlarni ishlab chiqish muammosi alohida e'tiborni talab qiladi. Bu juda muhim, chunki o'qituvchining kommunikativ kompetentligi nafaqat kasbiy muammolarni hal qilishda, balki inson o'z kasbidan tashqaridagi dunyoni qanday idrok etishi, baholashi va tushunishida ham namoyon bo'ladi, pirovardida pedagogga qulay muhit yaratilishiga bog'liq. Ya'ni ta'lim sharoitida demokratik muhit yaratilganmi? Yoki ta'lim oluvchi faol sub'yekt sifatida harakat qiladimi va hayotda o'zini to'laqonli shaxs sifatida anglaydimi? kabi savollarga javob topiladi.

Ammo rus pedagog olimi O.I.Matyash fikriga ko'ra, bugungi kunda bo'lajak pedagoglarni tayyorlashda, ta'lim oluvchilar, ularning ota-onalari va hamkasblari bilan ongli ravishda til vositalari orqali o'zaro munosabatlarni o'rnatish qobiliyatiga yetarlicha e'tibor berilmayapti; muloqot jarayonida o'zi va o'zgalarning ma'nolarini farqlash, yoki bu ma'nolar bir-biriga to'g'ri kelmasligi, balki muloqot san'ati aynan turli ma'nolarni muvofiqlashtirish qobiliyatida ekanligini tushunishi kabi muammolarga duch kelamiz.

Shuningdek, rus pedagogi A.M.Shapovalovning ilmiy izlanishlarida zamonaviy maktab amaliyotida kommunikativ ko'nikmalarni shakllantirish va o'zaro tushunish muammolari o'rganiladi. U tadqiqot jarayonida pedagoglarning o'quv fanlari orqali ta'lim oluvchilarning kommunikativ ko'nikmalarini shakllantirish bo'yicha tizimli ishlar yetarli darajada emasligini aniqlaydi. A.M.Shapovalova buning sabablarini: zarur uslubiy adabiyotlarning etishmasligi; kommunikativ ko'nikmalarni shakllantirish mezonlarini aniqlashdagi qiyinchiliklar; ushbu faoliyat turi bo'yicha kasbiy kompetentsiyaning etarli emasligida deb ko'rsatadi.

Bo'lajak pedagoglarning kommunikativ kompetentligini shakllantirish holatini tahlil qilarkanmiz, oliy ta'lim muassasalaridagi kasbiy tayyorlash jarayonida shakllanishi kerak bo'lgan kommunikativ kompetentlik muammosi nafaqat ta'lim oluvchilar, balki ularning ota-onalari va hamkasblari uchun ham muhimligini va kommunikativ o'zaro ta'sirning etarli darajada emasligini ko'rsatadi.

Shu nuqtai nazardan bu muammolar erkin muloqot qila oladigan, nutqi ravon va ta'lim oluvchilarga o'zaro ta'sir ko'rsata oladigan bo'lajak pedagoglarning kommunikativ kompetentligini maqsadli shakllantirish zaruratini belgilaydi. Ushbu mezonlar bo'lajak pedagoglarni kasbiy tayyorlash jarayonida va ularning kelajakdagi pedagogik faoliyatda, shuningdek, samarali shaxslararo va ijtimoiy munosabatlarida o'zini o'zi muvaffaqiyatli belgilash va o'zini o'zi amalga oshirish uchun yuqori darajadagi kommunikativ kompetentligini ta'minlaydi.

O'tgan asrning 70-yillarida "kommunikativ kompetentlik" fenomeniga bag'ishlangan bir qator psixologik tadqiqotlar amalga oshirildi. Faqat 80-yillarning II-yarmida, jamiyatimizda demokratik qayta qurish boshlanishi bilan pedagogik erkin fikrlash haqiqiy shaklga ega bo'ldi.

Ta'lim tizimida ma'muriy-buyruqbozlik pedagogikasining hukmronligiga qarshi uyushgan ijodkor pedagoglar jamoasining noroziligi natijasida innovatsion harakatlar qo'llab-quvvatlanib, hamkorlik pedagogikasi paydo bo'la boshladi. Ushbu kontseptsiyaning o'zagi oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayonini pedagogik muloqotning teng huquqli hamkorlik

va insonparvarlik tamoyillari asosida qayta qurish edi. Shu tariqa ilg'or pedagoglar tomonidan taklif qilingan "Hamkorlik pedagogikasi" atamasi keng ommalashdi.

Albatta, "Hamkorlik pedagogikasi"ning noodatiy va noan'anaviy shaklidagi "kommunikativ kompetentlik" fenomeni bo'lib, aynan shu tushunchagina ta'limning o'zaro ta'siri, uning tuzilishi va vazifalarini yanada chuqurroq tavsiflash imkonini beradi. "Kommunikativ kompetentlik" atamasi xorij pedadogik adabiyotlarida qo'llaniladigan "kooperativ pedagogika", "guruhchilik", "kommunikativ pedagogika", "dialog pedagogikasi" kabi tushunchalarga yaqindir.

"Hamkorlik pedagogikasi" - bu birgalikda o'rganish bo'lib, ta'lim oluvchilarda ijodiy izlanish ruhini shakllantiradi. Ya'ni bunda pedagog ta'lim oluvchilar faoliyatining tashkilotchisi, muvofiqlashtiruvchisi va ishtirokchisi sifatida faoliyat yuritadi. Ushbu yo'nalishning asosiy vazifasi kichik uyushgan guruhlarda erkin ishlashdir.

Kooperativ pedagogikaning asoschilari - D.Boilyu, D.Koller, D.Kroll, K. Makduyell va K.Rodjerslar hisoblanib, ular "kommunikativ kompetentlik"ning didaktik imkoniyatlaridan foydalanganlar. Jumladan, K.Rodjers o'zining "Erkin ta'lim" tadqiqotida pedagoglar bolaning o'z xulq-atvorini o'zi tuzatishi va boshqarishiga zo'ravonliksiz erishishiga yo'naltirishadi. Ya'ni, u insonparvarlik tamoyillari asosida quriladigan "kommunikativ kompetentlik"ning asosini quyidagilarda belgilaydi:

- aloqa hamkorining muvofiqligi, ya'ni hamkorlikdagi sheriklar muloqot davomida bir-birini to'ldirishi, masalan, bir sherikning tajriba, fikr, his-tuyg'u va aloqa vositalarining boshqa sherigining tajribasi, fikrlari, his-tuyg'ulari va aloqa vositalariga mos kelishi;
- sherigining individual xususiyatlarini idrok etish va qadrlash, ya'ni u tomondan kutilayotgan orzu niyatlarining amalga oshishiga ishonish. Shu o'rinda boshqa bir insonni qandaydir shartsiz qiymat sifatida qabul qilish haqida so'z boradi.
- sherigini o'z fikri va qaroriga ega bo'lgan teng huquqli shaxs sifatida qabul qilish.

Shungdek, o'tgan asrning 70-yillarida yana bir xorijlik olim J.Ferrining "Guruhda ishlash amaliyoti" monografiyasi mashhur bo'lgan. U bu asarida o'quv jarayonini kichik guruhlar asosida tashkil etish texnologiyasini ochib beradi.

Ko'rinib turibdiki, oliy ta'limda insonparvarlashtirish tamoyili ko'p jihatdan yoshlarni umuminsoniy qadriyatlar bilan tanishtirish borasida jahon tajribasini o'rganish va uni munosib baholash bilan bog'liq. Bunda pedagogikaning inson faoliyati va muloqoti haqidagi fanlar bilan uzviy bog'liqligining o'rni beqiyos kattadir.

Dastlab, "kommunikativ kompetentlik" ijtimoiy psixologiyaning asosiy kategoriyasi sifatida shakllangan. Bo'lajak pedagoglarning "kommunikativ kompetentligi" hissiy-kognitiv faoliyatida va baholash jarayonida ma'lumotlarini almashishdan iborat bo'lgan o'zaro muloqot va o'zaro ta'sirida aniqlanadi. "Kommunikativ kompetentlik" amaliy faoliyatdagi o'zaro ta'sir hisoblanib, u shaxsning ta'lim olishi, mehnat qilishi, uni rejalashtirishi, amalga oshirishi va nazorat qilishini ta'minlaydi.

XX asrning 60-yillarining oxirlarida ijtimoiy va pedagogik psixologiyaning tutashgan joyida "pedagogning kommunikativ kompetentligi" tushunchasi paydo bo'ldi. Bo'lajak pedagoglarning kommunikativ kompetentligi integral jarayon hisoblanib, bunda ilk marotaba didaktik va kommunikativ jihatlar alohida ajratilgan.

Bo'lajak pedagoglarning kommunikativ kompetentligi ichki va tashqi jihatlariga ega bo'lgan jarayon hisoblanib, uning birinchi (ichki) jihatiga psixolog olimlar, ikkinchi (tashqi) sig pedagoglar e'tibor qaratadi. Shu nuqtai nazardan "pedagogning kommunikativ kompetentligi" Pedagogik psixologiya nazariyasi va amaliyotida ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi o'rtasida sodir bo'ladigan psixik jarayonlarni boshqarish usullarida namoyon bo'ladi. Shu sababli Pedagogika fani Psixologiya sohasidan biroz tashqariga chiqadigan ta'lim jarayonidagi o'zaro ta'sirning ancha kengroq talqini bilan tavsiflanadi. Ya'ni Pedagogikada "pedagogning kommunikativ kompetentligi" tushunchasi uning axloqiy, estetik va texnologik jihatlarini rivojlantirish uchun qo'llanilsa, Psixologiya sohasida yaxlit muloqot jarayonidagi "axborot almashish va o'zaro ta'siri sifatida" talqin qilinadi. Ya'ni, bunda sub'ektiv va kommunikativ jihatlar ajratilib ko'rsatiladi. Biroq bu ikkala fan nuqtai nazarlari o'zaro uzviy bog'liq nazariyalardir.

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, subyektning o'zaro ta'siri uning kommunikativligiga imkoniyat yaratadi. Demak, psixologik tadqiqotlar, o'z navbatida, pedagogik izlanishlarning validligini tasdiqlaydi va uning mahsuldorligini ta'minlaydi. Masalan, pedagogning ta'lim oluvchilar bilan "yuzma yuz" muloqoti samimiy suhbat bo'lishi mumkin. Ishonch asosida qurilgan muloqot shaxsga ma'naviy qadriyatlarni almashish imkonini beradi. Ayniqsa, ta'lim oluvchilar doimo bunday muloqotning etishmasligini his qilishadi.

Pedagogning kommunikativ kompetentligi nazariy va amaliy jihatdan ko'proq rivojlangan bo'lib, biroq Pedagogikada bu o'zaro ta'sir sifatida hali ham tegishli e'tibor qaratilmagan. Pedagogning kommunikativ kompetentligi keng tushuncha bo'lib, u nafaqat ta'lim oluvchilar bilan, balki hamkasblari doirasini ham qamrab oladi. Pedagogning kommunikativ kompetentligining didaktik imkoniyatlari ta'lim oluvchilarda bilim, ko'nikma va malakalar tizimini shakllantirishga qaratiladi.

"Kommunikativ kompetentlik"ning mazmuni - pedagogning o'zaro ta'siri bilan bog'liq holda fikr almashish, nuqtai nazarini ifodalash, qiziqish, his-tuyg'u va kayfiyatlarida namoyon bo'ladi. Ya'ni bu pedagogning ta'lim oluvchilar bilan auditoriyada ilmiy konferentsiyalarga tayyorgarlik ko'rishi va ilmiy jamiyatlardagi faoliyatidagi mazmunli o'zaro muloqotga kirishishida aks etadi. Biroq, pedagogning kommunikativ kompetentligi nafaqat etakchi faoliyat sifatida kognitiv, badiiy, mehnatni tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlari va usullarida, balki uning ta'lim oluvchilar bilan kommunikativ o'zaro ta'sirida belgilanadi. Kommunikativ o'zaro ta'sirning asosiy vazifalari tarbiyaviy xususiyatga egadir.

Pedagog va ta'lim oluvchi o'rtasidagi muvaffaqiyatli kommunikativ hamkorlikning aniq ko'rsatkichi auditoriyadagi qulay ma'naviy-psixologik iqlimdir. Ma'naviy-psixologik iqlimning xususiyatlari quyidagilar:

- har bir ta'lim oluvchining ijodiy izlanish muhiti, hissiy-kognitiv faolligi;
- hamkorlik va o'zaro yordam ruhi;
- muloqot madaniyati;
- o'zaro muloqotdan qoniqish hissi kabilardan iborat.

Kommunikativ o'zaro ta'sirning etakchi vazifalari quyidagilardan iborat:

- pedagog va ta'lim oluvchining subyektiv faoliyatining kelishuvini muvofiqlashtirish, ularning motivatsiyasi va intellektual, hissiy-irodaviy rivojlanishini rag'batlantirish;

- ta'lim oluvchilar o'rtasida muvofiqlik, o'zaro tushunish, hamdardlik munosabatlarini o'rnatish;
- ularning muloqot madaniyatini shakllantirish.

Kommunikativ o'zaro munosabat madaniyatining ko'rsatkichlari:

- pedagog va ta'lim oluvchilarning pedagogik harakatlariga bo'lgan munosabatlarining muvofiqligi hamda birgalikdagi faoliyatning sinxronligi;
- hissiy va kognitiv faollik, ijodiy izlanish va hamkorlik muhiti;
- pedagog va ta'lim oluvchi o'rtasidagi rasmiy va shaxslararo muloqotida odob-axloq me'yorlariga rioya qilish kabilar xizmat qiladi.

Kommunikativ aloqalarni boshqarish jarayonining tuzilishi nazariy va amaliy qiziqish uyg'otadi:

- yaqinlashib kelayotgan aloqani muayyan rejalashtirilgan tizimga keltirish;
- yaqinlashib kelayotgan muloqotning shartlari va tuzilishini aniqlashtirish;
- bevosita muloqotning dastlabki bosqichini amalga oshirish;
- boshlangan aloqa tizimida tashabbusni boshqarish.

Kommunikativ o'zaro ta'sirning o'ziga xos xususiyati pedagog tomonidan qo'llaniladigan texnologiyalar bilan belgilanadi. Bunda odatda, psixologik va pedagogik vositalar birgalikda qo'llaniladi.

Pedagogning kommunikativ kompetentligining muvaffaqiyati lingvistik, paralingvistik vositalar, psixologik ta'sir mexanizmlari, o'quv vositalarining xilma-xilligi, ish usullari, uslublari va shakllari (suhbatlar, munozaralar, ta'lim oluvchilar ilmiy to'garagida ishlash, konferentsiyalar tashkil etish) kabi kasbiy faoliyat bilimlari bilan bog'liq.

Pedagogning kommunikativ kompetentligi tadqiq qilishdan oldin mazmunan bir-biriga mos kelmaydigan tushunchalarni farqlash zarur: kompetentsiya va kompetentlik. Ko'plab pedagogik manbalarda "Pedagogik kompetentlik (lotincha compentia – huquqiy jihatdan tegishlilik) - bir qator masalalarni hal etish mas'uliyati" deb tavsiflanadi.

"Kommunikativ kompetentlik" esa pedagog professionalizmining o'zagi hisoblanadi. U ma'lum bir ilmiy bilimlar va amaliy ko'nikmalar tizimidan iborat murakkab tuzilishga ega.

"Kommunikativ kompetentlik" muammolarini hal qilishda asosiy rolni rivojlangan ijtimoiy intellekt egallaydi. Kommunikativ - aloqa va munosabatlarni o'rnatishga moyil va qodir.

Ijtimoiy intellektning xususiyatlari quyidagilardir:

- ijtimoiy yo'naltirilganlik, hamkorlik qilishga tayyorlik, boshqalarning yutuqlariga shaxsiy qiziqish;
- shaxslararo muammolarni hal qilishda ijtimoiy samaradorligi;
- odamlarga qiziqishi va shaxsiy rahm-shafqat ko'rsatishi;
- o'ziga va o'zgalarga nisbatan muayyan hurmat ko'rsatishi.

Ta'lim-tarbiya jarayonda namoyon bo'ladigan kommunikativ kompetentlikda quyidagi pedagogik bloklar:

- ijtimoiy-psixologik;

- odob-axloq;
- estetik;
- texnologik kabilarni ajratib ko'rsatish mumkin.

Ijtimoiy-psixologik blok ta'lim oluvchilar bilan muloqot qilish, ijobiy taassurot qoldirish, har bir ta'lim oluvchining shaxsiy o'ziga xosligini tushunish qobiliyatini o'z ichiga oladi.

*Odob-axloq blokining* tuzilishi insonparvarlik va demokratik tamoyillar asosda kommunikativ kompetentlikni rivojlantirish, kasbiy etika va odob-axloq qoidalariga amal qilish, muloqot qilish uchun qulay axloqiy muhitni yaratish qobiliyatini o'z ichiga oladi.

*Estetik blok* quyidagi: ta'lim oluvchilarni yuqori muloqot madaniyati bilan tanishtirish, badiiy, ifodali bo'lish, ularning hissiy uyg'unligini faollashtirish va yuqori muloqot madaniyati bilan tanishtirish kabi ko'nikmalarni o'z ichiga oladi.

*Texnologik blokning* tuzilishi quyidagi: ta'lim-tarbiya vositalari, usul va uslublari, o'zaro ta'sirning turli shakllaridan foydalanish, muloqotni boshqarishning optimal yo'li tanlash hamda pedagogik taktga rioya qilish kabi ko'nikmalarni o'z ichiga oladi.

Pedagogning o'ziga xos shaxsiy sifatlaridan biri - bu pedagogik va kommunikativ kompetentligi hisoblabadi. Uning etakchi xususiyatlari quyidagilar:

- ta'lim oluvchilar bilan muloqot qilish zarurati;
- ijobiy hissiy uyg'unligi;
- ta'lim oluvchilarni tushunishi, ular bilan individual va guruhli aloqalarni o'rnatish qobiliyati;
- shaxslararo nizolarni hal qilish;
- muloqotning insonparvarligi va demokratikligi;
- muloqot estetikasi kabilardan iborat.

Shunday qilib, ijtimoiy psixologiya va pedagogika ma'lumotlarining integratsiyasiga asoslangan pedagogning kommunikativ kompetentligi innovatsion yo'nalish sifatida muloqot muammolarini nafaqat chuqurroq va har tomonlama idrok etish, balki ularni kasbiy-amaliy faoliyatda samarali hal qilish imkonini beradi.

### **Adabiyotlar:**

1. Axmedova, M. T. (2014). Pedagogik konfliktologiya. *T.: TDPU.*
2. Axmedova, M. T. (2016). Педагогик компетентлик. *T.: ТДПУ.*
3. Akhmedova, M., Narmetova, Y., & Alisherov, B. (2021). Categories of person in conflict and methods of conflict resolution in the occurrence of conflicts between medical personnel.
4. Axmedova, M., & Narmetova, Y. (2022). Neyropedagogika va neyropsixologiya rivojlanib kelayotgan yangi fan sohasi sifatida. *Общество и инновации, 3(2/S), 103-109.*
5. Axmedova, M. T., & Dehqonova, M. Y. (2022). ШАХСИ ШАКЛЛАНИШИ ВА РИВОЖЛАНИШИДА ИННОВАЦИОН ТАЪЛИМ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШ. *INTEGRATION OF SCIENCE, EDUCATION AND PRACTICE. SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL, 3(6), 346-350.*

6. Akhmedova, M. T., Narmetova, Y. K., Nurmatova, I. T., & Malikova, D. U. K. (2022). Communicative Competence Formation in Future Teachers Based on an Integrated Approach. *International Journal of Multicultural and Multireligious Understanding*, 9(4), 54-60.
7. Юлдашевна, Х., & Нарметова, Ю. К. (2022). РОЛЬ РЕЛИГИОЗНОГО ОБРАЗОВАНИЯ В ВОСПИТАНИИ ДУХОВНО РАЗВИТОГО ПОКОЛЕНИЯ СРЕДИ ДЕТЕЙ ИНВАЛИДОВ. *INTEGRATION OF SCIENCE, EDUCATION AND PRACTICE. SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL*, 3(4), 114-117.
8. Tursunaliyevna, A. M., & Karimovna, N. Y. (2022). Maktabgacha tarbiya muassasalarida madaniy-gigiyenik malakalarni tarbiyalash–bolalar organizmining jismoniy rivojlanishida muhim vosita. *Integration of science, education and practice. Scientific-methodical journal*, 3(1), 98-103.
9. Ахмедова, М., Аскарлова, Н., & Анварова, Д. (2022). Замонавий таълим тизимида касбий коммуникатив компетентлиликнинг моҳияти ва тузилмаси. *Общество и инновации*, 3(2/S), 47-51.
10. Аскарлова, Н. А. Кичик мактаб ёшидаги ўқувчиларнинг билиш жараёнларини коррекциялашга доир. 2015. *Педагогика журналы*, 4.
11. Ахмедова, М. Т. (2021). Проблема учебной дисциплины в общеобразовательных школах и пути ее преодоления. In *European research: innovation in science, education and technology* (pp. 49-51).
12. Narmetova, Y., Melibayeva, R., Akhmedova, M., Askarova, N., & Nurmatov, A. (2022). PSYCHODIAGNOSTICS ATTITUDE OF THE PSYCHOSOMATIC PATIENTS'DISEASE.
13. Нарметова, Ю. (2014). Кўзи ожиз ва заиф кўрувчи болалар психологик хусусиятларининг ўзига хослиги.
14. Дехканова, М. У., & Кубонов, Ж. И. (2021). ТАЪЛИМ ЖАРАЁНИГА ИННОВАЦИОН ТЕХНОЛОГИЯЛАРНИНГ ЖОРИЙ ЭТИЛИШИ. *Academic research in educational sciences*, 2(NUU Conference 1), 75-78.
15. Дехканова, М. У., & Зарипова, Д. А. (2021). МАЛАКА ОШИРИШ ЖАРАЁНИГА “ТАРМОҚЛИ БУМЕРАНГ” ТЕХНОЛОГИЯСИНИ ЖОРИЙ ЭТИШ. *Academic research in educational sciences*, 2(NUU Conference 1), 211-213.
16. Umarova, S. (2021). Yoshlarda hadislar yordamida sabr toqatlilik hususiyatini shakillantirish.